

MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDAGI EKOLOGIK
MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI

Atajanova Muyassar Atajanovna

Xorazm viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi

Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi katta o'qituvchisi

Annotatsiya : Ekologiya (qadimgi yunoncha: οἶκος — “uy”, “turar joy”) - organizmdan har xil darajada yuqori turadigan sistemalar; populyatsiyalar, biotsenozlar, biogeotsenozlar (ekosistemalar) va biosferaning tuzilishi, ularda kechadigan jarayonlarni o'rganadigan biologiya fanlari majmui. Ekologiyani organizmlar va ular bilan atrof muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadigan fan sifatida ham talqin qilinadi. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo hududidagi ekologik vaziyatlar haqida tushuntiriladi.

Kalit so'zlar: Ekologiya, ekosistema, gidrometeorologiya, seysmologik, barqarorlik

Kirish: MARKAZIY OSIYO – Tabiiy ofatlar nima ekanligini yaxshi biladigan Markaziy Osiyo aholisi xavflarni kamaytirishga qaratilgan xalqaro dasturlar afzalliklaridan bahramand bo'lmoqda.

Bugungi kunda Markaziy Osiyoda aholisi eng ko'p shahar hisoblangan Toshkent 1966 yilda 7,5 ballik zilzila natijasida vayron bo'lgan, 300 mingdan ortiq odam o'z boshpanasini yo'qotgan edi. Turkmaniston poytaxti Ashxobod ham 1948 yilda 7,3 ballik zilzilani boshdan kechirgan, minglab odamlar halok bo'lgan. Tojikiston poytaxti Dushanbe va Qozog'istonning eng yirik shahri – Olmaota ham 1907 va 1911 yillarda jiddiy yer silkinishlariga guvoh bo'lgan.

Bugungi kunda bu shaharlar jiddiy seysmologik xavf ostida bo'lgan boshqa shaharlar va aholi punktlari qatorida mintaqaning madaniy va iqtisodiy taraqqiyoti markazlariga aylangan. Bu yerda qattiq qurg'oqchilik va ekstremal harorat mintaqadagi asosiy muammolardan sanaladi.

Masalan, 2008 yilda qishning o'ta sovuq kelishi Tojikistonda 2 million kishini qiyin ahvolda qoldirib, gumanitar inqirozni keltirib chiqardi. Iqlimning global isishi qishloq aholisining turmush tarziga ta'sir qilmoqda. Quruq ob-havo cho'ponlarni yaxshiroq o'tloqlari bo'lgan baland-baland tog'larda qo'y boqishga majbur qiladi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida qishloq xo'jaligi xavfga moyil sohalardan biri hisoblanadi. (Stuhlberger/Zoi Environment)

Bu kabi kam uchraydigan va vayronkor hodisalardan tashqari, Markaziy Osiyoning 70 milliondan ortiq aholisining hayoti va faoliyatiga suv toshqinlari, yer va qor ko'chkilari, sellar kabi boshqa halokatli xavflar ham tahdid soladi. Oqibatlari

bartaraf etilgan taqdirda ham ular mahalliy va milliy byudjetlarga zarba berishi, iqtisodiy rivojlanishga zarar yetkazishi va aholi zaif qatlamlarining nochorlashuviga olib kelishi mumkin.

Jiddiy moliyaviy xavflar Tabiiy ofatlar Markaziy Osiyo hukumatlari uchun jiddiy moliyaviy tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Jahon banki (JB) hisob-kitoblariga ko'ra, Qirg'izistonda zilzilalardan ko'riladigan yillik zarar 200 mln. AQSh dollarini tashkil qiladi.

Shuningdek, har yili iqtisodiyotga suv toshqinlaridan 60 mln., yer ko'chkilaridan esa 2,6 mln. dollarlik ziyon yetadi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo aholisining qariyb 25 foizi qishloq xo'jaligida faoliyat yuritadi – bu suv toshqini yoki qurg'oqchilik kabi gidrometeorologik falokatlarga moyil bo'lgan tarmoqlardan biridir. 2000-2001 yillardan beri mintaqadagi qurg'oqchilik Markaziy Osiyo va Kavkazdagi besh mamlakatda qishloq xo'jalik mahsulotlarining nest-nobud bo'lishi natijasida ko'rilgan zarar 800 million dollardan ortiqni tashkil etdi. Tojikistonda ushbu yo'qotishlar YaIMning 4,8 foiziga to'g'ri keldi va mamlakatdagi joriy kamomadning oshishiga sabab bo'ldi.

Markaziy Osiyoda yana bir muhim iqtisodiy faoliyat bo'lgan savdo sohasi ham tabiiy ofatlar tufayli doimiy xavf ostida qolmoqda. Masalan, mintaqa janubidagi tog'lihududlardan o'tadigan asosiy savdo trassasi (M41) ham har yili yer, tosh va qor ko'chkilari, sellardan aziyat chekadi, natijada ushbu muhim hayotiy arteriya bo'ylab harakat sekinlashadi yoki butunlay to'xtaydi. Iqlim o'zgarishlari Markaziy Osiyo shaharlarining ekologik barqarorligi, infratuzilmaviy yaxlitligi va rivojlanishga tahdid soladi. Bunday holatlar Markaziy Osiyo mamlakatlari hukumatlari uchun og'ir moliyaviy qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Xavfga qarshi kurashdagi innovasiyalar Markaziy Osiyo mamlakatlarining tabiiy ofatlarga qarshi moliyaviy barqarorligini oshirishga ko'maklashish maqsadida Jahon banki va boshqa hamkorlar ofatlar xavfini boshqarishning manzilli choralari qatorida, mintaqada tabiiy ofatlar xavfini moliyalashning innovasion mexanizmlari ustida ish olib bormoqda. Misol uchun, Jahon banki Qirg'izistonda yaqinda tashkil etilgan davlat sug'urta tashkilotiga xususiy mulkni tabiiy ofatlardan majburiy sug'urta qilish dasturini ishlab chiqishda ko'maklashmoqda. Dastlabki natijalar esa umidbaxsh: 2017 yilning may oyida O'sh viloyatida yuz bergan zilziladan so'ng, 40 dan ortiq ko'chmas mulk egalari jami 6,8 mln. qirg'iz so'miga (100 ming AQSh dollari) teng sug'urta pullari to'langan. Bundan tashqari, yaqinda Tojikistonda tabiiy ofatlardan so'ng strategik moliyalash platformasini ishlab chiqishga oid investisiyaviy loyiha tasdiqlangan bo'lib, u hukumatga tabiiy ofatlar uchun moliyaviy rejalashtirishni yaxshilashga ko'maklashadi. Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyoda barqarorlikni oshirishga qaratilgan qo'shimcha mintaqaviy choralar ham rejalashtirilgan, ular ham ofatlar xavfini moliyalash elementlarini o'z ichiga

oladi.«Bu kabi tashabbuslar xavf-xatarlarni moliyalash vositalarini aniqlash va dunyoning boshqa davlatlarida muvaffaqiyat qozongan mexanizmlarni o'rganish orqali halokatli hodisalardan himoyalanişga yordam beradi», deydi Jahon bankining Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy direktori Liliya Burunchuk. Jahonning ilg'or tajribasi Markaziy Osiyoda tabiiy ofatlar xavfini moliyalashtirishga oid mazkur sa'yoharakatlar jahon miqyosidagi ko'plab tadqiqotlar va eng ilg'or xalqaro tajribaga asoslangan. Misol uchun, Qirg'izistonda bardoshlilikni oshirish loyihasi doirasida Jahon banki va Tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va qutqarish jamg'armasi (GFDRR) iyuni oyida Qirg'iziston vakillari Turkiya va Ruminiyadan kelgan hamkasblari bilan tajriba almashdilar. Mashg'ulotlar davomida so'nggi yillarda Turkiya falokatlarni sug'urta qilish birlashmasi (TCIP) va Ruminiya Tabiiy ofatlarga qarshi sug'urta birlashmasi (PAID) tomonidan amalga oshirilgan tabiiy ofatlardan majburiy sug'urta dasturining muhim jihatlariga e'tibor qaratildi. Bu dastur Turkiyaning 48, Ruminiyaning esa 20 foiz aholisini qamrab olgan.

Markaziy Osiyo davlatlarida yuz beradigan tabiiy ofatlar darajasi va ko'lami hisobga olinsa, tabiiy ofatlar xavfini moliyalashtirish barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim elementi bo'lib qolmoqda.

Markaziy Osiyoda suv muammolarini hal qilishdagi ustuvor vazifalar.

Mamlakatimizda bahor va nafosat, yasharish va go'zallik ayyomi – Navro'z nafasi kezib yurgan bir paytda uning mantiqiy davomi o'laroq 22 mart – Butunjahon suv resurslari kuni butun dunyoda keng nishonlanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida ekologiya bilan bog'liq muammolar ko'lami kengayib borayotgani bugungi kunda barchani birdek tashvishga qo'ymoqda. Xususan, ushbu sub-regiondagi suv va uning taqchilligi bilan bog'liq masalalar nafaqat mintaqaviy, balki global ahamiyat kasb etmoqda. Hayotimiz manbai bo'lgan suvning mintaqamizda tobora tanqislashuvi, ekologiya va atrof-muhit ifloslanishi natijasida uning sifat jihatidan o'zgarishi kelgusida jiddiy to'siqlar yaratishi mumkin. Bu, o'z navbatida, ya gona hududda azal-azaldan qo'shni bo'lib yashab kelayotgan mamlakatlar oldiga ushbu muammolar yechimini birgalikda topish vazifasini qo'ymoqda. Insoniyat tomonidan tabiat resurslaridan oqilona foydalanmaslik oqibatida iqlim o'zgarishi va uning natijasida muzliklarning erishi bu kabi salbiy holatlarni yuzaga keltirgan. Hozirda esa mazkur masala bir mamlakat hududidan chiqib, transchegaraviy tus olayotgani va kun sayin keskinlashib borayotgani global ahamiyat kasb etmoqda.

Bundan tashqari, mintaqada mavjud suv zahirasining chegaralangani va demografik o'sish natijasida suvdan foydalanish shu yo'sinda davom etadigan bo'lsa, muammo ko'lami yanada kengayib ketishi ehtimoli yuqori. BMT ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyoning 2 milliarddan ortiq aholisi toza ichimlik suvidan va 4 milliarddan ortig'i esa oddiy sanitariya sharoitidan mahrum bo'lgan holatda hayot

kechirmoqda. Ma'lumki, O'zbekistonga kerakli chuchuk suvning taxminan 75-80 foizi qo'shni Qirg'iziston va Tojikistondan keladi. Ammo global isish natijasida Pomir va Tyani-Shani tog'laridagi muzliklarning shiddat bilan erishi kuzatilmoqda. Bu, o'z navbatida – avvaliga sel va toshqinlar keltirib chiqarsa, istiqbolda daryolar qurib, cho'llanishga olib keladi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, buning oqibatida Markaziy Osiyo mintaqasi yaqin 20 yilda zaminimizning eng suvsiz hududlaridan biriga aylanishi mumkin. Hozirgi kunda Orol dengizining qurishi dunyoning eng yirik ekologik fojialaridan biri bo'lib turibdi. Sahroga aylangan dengiz tubidagi tuz, qumchang va zaharli o'g'itlar insonlar hayoti va tabiatni xavf ostiga qo'yayotgani hech kimga sir emas. Muammoni Markaziy Osiyo mamlakatlari kesimida tahlil qilsak, quyidagi holatlarni guvohi bo'lish mumkin. Masalan, Qozog'istonda Orol dengizi taqdirini Balxash ko'li takrorlashi mumkin. Olimlarning ta'kidlashicha, ko'lga oqib tushadigan daryolar deltasi tezda o'zgarib bormoqda. Ulardan ba'zilari bir nechta mamlakatlar (Xitoy, Qozog'iston, Rossiya) hududlaridan o'tib, transchegaraviy muammoga ega. Masalan, Xitoy tomoni Balxashga oqib keladigan Ili daryosining suvidan faqat qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanadi. Hozirda bu ko'lda suv va baliq miqdorining keskin pasayishi kuzatilmoqda. Agar suv iste'moli shu yo'sinda davom etsa, Balxash butunlay qurib qolishi va bir necha mayda qismlarga bo'linib

ketishi mumkin. Ekspertlarning taxminlariga ko'ra, agar vaziyat o'zgarmasa, Irtish daryosi havzasida suv zahirasi 2030 yilga kelib — 8 kub kilometr, 2040 yilga kelib — 10 kub kilometr, 2050 yilga kelib — 11,4 kub kilometrqa qisqaradi. Qirg'izistonda joylashgan asosiy tabiiy diqqatga sazovor joylaridan biri bo'lgan Issiqko'l hududida sayyohlik oqimi yuqori bo'lganligi sababli kuzatuvchi olimlar bu yerning ekologik holatini ham tashvishli, deb baholamoqda. Bunga sabab, ko'l bo'yida mahalliy aholi va sayyohlar tomonidan chiqindilar bilan tabiatni ifloslantirishdir. Sohildan 300 metr narida Bosteri qishlog'i eng katta chiqindi maydoniga aylangan. 10 yildan ortiq muddatda yig'ilgan axlat hududi 4 gektar yerni egallaydi. Tojikistonda muzliklar mamlakat umumiy maydonining qariyb 6 foizi — 9 ming kvadrat kilometrdan ortiq maydonni egallaydi. So'nggi yillar davomida mamlakatdagi muzliklar maydoni uchdan bir qismga kamaydi. Mutaxassislar bu jarayonni iqlim o'zgarishi va Orol dengizining qurishi bilan bog'lashadi. Kuchli shamollar qurigan dengizdan tuzlarni muzliklar ichiga olib keladi va natijada bu eritish jarayonini tezlashtiradi. Hozirgi vaqtda 14 ming muzlikdan mingtasi butunlay erigan. Yerdagi eng katta muzliklardan biri hisoblangan “Fedchenko” muzligi so'nggi bir necha yilda 700 kilometr kvadratdan iborat ikki kub kilometrdan ko'proq muzni yo'qotdi.

Tojikistondagi muzliklarning erishi Markaziy Osiyo iqlimidagi qaytarilmas o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Xususan, cho'llashish, qishloq xo'jaligidagi

hosildorlikning pasayishi, suv yetishmasligi tufayli butun mintaqaning ekologik holatiga jiddiy zarar yetishi, Orol dengizining butunlay yo'q bo'lib ketishi, suv va oziq -ovqat yetishmovchiligi tufayli keng ko'lamlı gumanitar vaziyat yuzaga kelishi shular jumlasidan.

O'zbekiston tashabbusi bilan 2018 yil 22 iyuni kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida «Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni musta hkamlash» rezolyusiyasi qabul qilindi. BMTga a'zo barcha davlatlar bir ovozdan qo'llab quvvatlagan ushbu hujjatda Markaziy Osiyoda suv va energiya manbalaridan unumli va kompleks foydalanish, Orol dengizi qurishi bilan bog'liq ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy asoratlarni yumshatish yo'nalishlarida ikki tomonlama va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish muhimligi qayd etilgan. Mamlakatimizda suv tanqisligi vujudga kelishining oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2020 yil yozgi sug'orish mavsumida ekin maydonlarini suv bilan ishonchli ta'minlash va suv tanqisliginı oldini olish bo'yicha shoshilinch chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Hujjatda respublikamiz hududlarida suv resurslarining yetarli darajada ta'minlanishi va oqilona taqsimlanishi belgilangan.

Kelajakda sohaga yirik investisiya jalb etish, qayta ishlash texnologiyalari hamda suvni tejab ishlatish usullarini joriy etish jarayonini jadallashtirish rejalashtirilgan. O'zbekiston Ekologik partiyasi bu borada o'zining dasturida quyidagi maqsad va vazifalar belgilangan: Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etish, Orolbo'yi hududida ijtimoiy-iqtisodiy holatni yaxshilash, mahalliyashtirishni ta'minlash, ekologik vaziyatni tiklash va sog'lomlashtirish, boshqa ekologik noqulay hududlarda ekologik muammolarni hal etish va aholi salomatligini saqlashga yo'naltirilgan innovasion g'oya va texnologiyalar, dastur va loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi va suv resurslarining yetishmasligi va ifloslanishi, cho'llanish, yerlarning tanazulli, atmosfera havosi ifloslanishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi jarayonlarini to'xtatish, shuningdek, iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha chora-tadbirlar ko'riladi. Mamlakat manfaatlarini hisobga olgan holda transchegaraviy suv oqimlarining suv resurslaridan adolatli foydalanishga yo'naltirilgan tashabbuslarni ilgari suradi. Aholining, ayniqsa, qishloq joylarida toza ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojni yaxshilash, mavjud suv chiqarish va kanalizasiya inshootlarini modernizasiya qilish, suv o'tkazish tarmoqlari va kanalizasiya tizimlarini rivojlantirish bo'yicha kompleks choralar amalga oshiriladi. Bugungi kunda bu borada tizimli ishlar olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qirg'iziston Respublikasining 2006-2011 yillardagi atrof-muhit holati to'g'risidagi milliy ma'ruza. Bishkek, 2012. - 128 b.

2. Markaziy Osiyoda atrof-muhit, suv va xavfsizlik. [Elektron resurs]: Kirish rejimi:<http://carececo.org/upload/47.pdf> (kirish 29/09/2015).

3. Mintaqaviy hamkorlik // Atrof-muhitni muhofaza qilish davlat agentligining rasmiy sayti Qirg'iziston Respublikasi hukumati huzuridagi ekologiya va o'rmon xo'jaligi [Elektron resurs]: Rejim kirish: URL: [http://nature.gov.kg / index.php/cooperation/regional.html](http://nature.gov.kg/index.php/cooperation/regional.html) (kirish sanasi: 29.09.2015).

4. Markaziy Osiyodagi uran qoldiqlari: mahalliy muammolar, mintaqaviy oqibatlari, global yechim / [Elektron resurs]: Kirish rejimi: <http://www.uranium.kg> (kirish sanasi: 30.09.2015).

5. Ekologik portal "Markaziy Osiyo va Rossiyada atrof-muhit va barqaror rivojlanish(CARNET)". [Elektron resurs]: Kirish rejimi: URL: <http://www.caresd.net> (kirish sanasi: